

Qoryog'diyev Jo'rabek Bobir o'g'li  
(Toshkent davlat transport universiteti talabasi)

**Annotatsiya:** Maqsud Shayxzoda haqidagi ma'lumotlar qisqacha shaklda, bunda uning asarlari, uning to'plam hamda sherlari.

**Abstrakt:** Information about Maqsud Shaykhzoda is in a concise form, in which his works, his collection and Lions.

**Аннотация:** Информация о Максуде Шейхзаде представлена в краткой форме, включая его произведения, его коллекция, а также его Львы.

**Kalit so'zlar:** Ganja, Muxtor Afandizoda, Maksud Shayxzoda, yosh tadqiqotchilar, aspirantlar, doktorantlar, Mirzo Ulugbek, Navoiy, Shekspir, sovetlar, Ulug'bek yulduzi, Hamlet, Romeo va Julietta, Mis chavandoz, Mosart va Saleri, Lermontovning Kavkaz asiri.

**Keywords:** Ganja, Mukhtar Afandizoda, Maksud Shaykhzoda, young researchers, graduate students, doctorants, Mirzo Ulugbek, Navoi, Shakespeare, Soviets, Ulugbek star, Hamlet, Romeo and Juliet, copper rider, Mosart and Saleri, Caucasian captive of Lermontov.

**Ключевые слова:** Гянджа, Мухтар афандизаде, Максуд Шейхзаде, молодые исследователи, аспиранты, докторанты, Мирза Улугбек, Навои, Шекспир, советы, звезда Улугбека, Гамлет, Ромео и Джульетта, Медный всадник, Моцарт и Салери, Кавказский пленник Лермонтова.

**Asosiy qism:** Zamonamiz allomalaridan biri zabardast shoir, dramaturg, soxibkalam olim, moxir tarjimon Maksud Shayxzoda qardosh Ozarbayjondagi Ganja viloyatining Agdash shaxrida ziyoli oilasida dunyoga kelgan. Yosh Maksud dastlab shaxardagi birinchi boskich maktabda Muxtor Afandizoda ko'lida ukiydi. O'ta ziyrak, barcha fanlardan fakat "a'lo" baholarga o'kigan Maksud bir ming to'qqiz yuz yigirma birinchi yili Bokudagi dorulmuallimiga jo'natildi. bir ming to'qqiz yuz yigirma beshinchi yili bilim yurtini imtiyozli tugatgan Maksud Darbandga ishga yuborildi. Bir ming to'qqiz yuz yigirma yettiinchi yildan boshlab esa u Dog'istonning Bo'ynoq shaxridagi pedagogika bilim yurtida ishlay boshlaydi. Maqsud Shayxzoda Bir ming to'qqiz yuz yigirma yettiinchi yilning iyun-iyul oylarida "sovetlarga karshi aksilinkilobiy xarakatlarga alokadorlik"da ayblanib, sud xukmi bilan uch yilga Toshkentga surgun qilinadi. Natijada Shayxzodaning taqdiri, keyingi hayoti o'zbek diyori bilan bog'landi. U shu zaminda zamonning buyuk san'atkori sifatida voyaga yetdi, shakllandi.

Badiiy ijodga o'tgan asrning yigirmanchi yillarida kirib kelgan Maksud Shayxzoda ko'plab she'rlar yozdi, "Sharq hakikati" gazetasida ishladi; O'zbekiston Fanlar akademiyasining Til va adabiyot institutining aspiranturasida o'kidi; ikkinchi jahon urushidan keyingi yillardagi o'zbek ziyolilari boshiga tushgan mudhish katagon vokeasi Maksud Shayxzodani ham chetlab o'tmadi. Uzok muddatli kuvgindan kaytgach Maksud Shayxzoda umrining oxirigacha kechki pedagogika instituti hamda Nizomiy nomidagi

Toshkent davlat pedagogika institutlarida talabalarga "Adabiyot nazariyasi", "O'zbek adabiyoti tarixi" fanlaridan dars berdi; Navoiy lirikasi bo'yicha maxsus kurs o'kidi; yosh tadqiqotchilar, aspirantlar, doktorantlarga rahnamolik kildi; "Chashma" ijodiy to'garagini boshqardi. U shogirdlarini ma'naviy, moddiy jihatdan ko'llab-kuvvatlab hatto tushlik olib berib yuradigan, otaday mushfik ustoz edi. Ushbu satrlar muallifi xam uning mexridan bahramand bo'lgan; ustozning Xayriddin Salox, Yusuf Shomansur, Anvar Yusupov, Tulkin Rasulov, Abduraim Otametov, Tursunboy Yo'ldoshev singari yosh ijodkorlar asarlarini taxrir kilib, "Ok yo'l" yozib, matbuotda chop ettirganlari, ilk kitoblariga so'z boshi yozganliklarining guvoxi bo'lgan.

Maksud Shayxzodaning ballada va dostonlari bu janr tarakkiyotida muxim o'rin tutadi. "Ulugbek" tragediyasi o'zbek dramaturgiyasiga shekspirona rux olib kirgan bo'lsa, Navoiy lirikasi xakidagi tadkikoti navoiyshunoslikda Yangi bir yo'nalishni boshlab berdi.

Maksud Shayxzoda xozirgi o'zbek adabiyotini mavzu doirasi, g'oyaviy yo'nalishi, janr tizimi, eng muhimi badiiyati jixatidan yuksaltirishga ulkan xissa qo'shgan san'atkordir. Shayxzoda poeziyasi teran axlokiy, ma'rifiy, ijtimoiy fikrlarga, o'ziga xos, kutilmagan so'z va iboralarga boy bir she'riyatdir. U o'zidan keyin O'ttizga yakin she'riy to'plamlar, "Mirzo Ulug'bek", "Jaloliddin Manguberdi", "Beruniy" dramalari, "She'riyat mulkingning sultoni" ilmiy risolasi singari bokiy asarlarni meros koldirdi.

Ustozning o'zbek tarjima adabiyoti ravnaqidagi ulushi xam katta. U Shota Rustavelining "Yo'lbars terisini yopingan paxlavon" dostonini, Shekspirning "Hamlet", "Romeo va Juletta", Pushkinning "Mis chavandoz", "Mosart va Saleri". Lermontovning "Kavkaz asiri" asarlarini o'ziga xos sanatkorlik bilan o'zbek tiliga tarjima kilgan. Bundan tashkari Ezop, Esxil, Nizomiy, Fuzuliy, Bayron, Gyote, Mayakovskiy, Nozim hikmatlarning ayrim sara asarlari tarjimalari xam Maksud muallim kalamiga mansub. Mazkur o'girmalar o'z davrida zukko tarjimashunoslar tomonidan yukori baxolangan. Maksud Shayxzoda ijodi olimlarimizdan N.Karimov, B.Nazarov, I.G'ofurov, Q.Yo'ldoshev, N.Raximjonov, N.Maxmudov, O.Abdullaevlar tomonidan ancha izchil o'rganilgan. Professor Naim Karimov "Shayxzoda" nomli ma'rifiy roman xam yaratdi.

**Xulosa:** "Mirzo Ulugbek" tragediyasining yaratilishi va xozirgi O'zbekiston Milliy drama teatrda sahnalashtirilishi, deb yozadi N. Karimov- respublikamizning madaniy hayotida ulkan vokea bo'ldi. Xalkimiz tarixining g'oyatda muhim sahifalaridan biri xakkoniy va shekspirona maxorat bilan tasvirlangan. Bu asar Kino ijodkorlarining e'tiborini ham o'ziga jalb etdi. Tanikli kinorejissyor Latif Fayziev Shayxzodaning mazkur asari asosida kinossenariy yozishga undab, u bilan xamkorlikda "Ulug'bek yulduzi" filmini yaratdi va bu film jahon ekranlarini aylanib, zo'r muvaffakiyat kozondi". Ammo Shayxzoda she'riyatining poetik sir-sinoatlari, adibning dramaturg sifatidagi san'atkorlik mahorati, Shayxzoda- Navoiyshunos singari mavzular xamon o'zining sinchkov tadkikotchilarini kutmokda.

1. Bobirovich, Q. D. J. R. (2023). MAQSUD SHAYXZODA VA ABADIYATGA DAHLDORLIK. "GERMANY" MODERN SCIENTIFIC RESEARCH: ACHIEVEMENTS, INNOVATIONS AND DEVELOPMENT PROSPECTS, 9(1).
2. Islomovna, M. F. (2024). O 'ZBEK ADABIYOTINING ATOQLI NAMOYANDALARIDAN BIRI MAQSUD SHAYXZODNING "JALOLIDDIN MANGUBERDI" ASARI. Yangi O'zbekistonda Tabiiy va Ijtimoiy-gumanitar fanlar respublika ilmiy amaliy konferensiyasi, 2(1), 89-92.
3. Islamovna, M. F. (2024, January). MAQSUD SHAYKHZADEH-TWO FOLK DILBANDI. In INTERNATIONAL CONFERENCE ON MODERN DEVELOPMENT OF PEDAGOGY AND LINGUISTICS (Vol. 1, No. 1, pp. 189-92).
4. Mamurova, F. (2023). MAQSUD SHAYXZODANING ADABIY MEROSI. Бюллетень студентов нового Узбекистана, 1(11), 9-11.